

## **"AMIRA TEXTILE": MAHSULOT HAJMINI 2023 YILDA 210 MILLIARD SO'MGA YETKAZISH REJALASHTIRILGAN**

Toshloq tumanining Besholish dahasi adirlardan iborat. 2020 yilda bu yerda "Kelajak" sanoat zonasini tashkil etildi. Uning loyihalari qatorida tadbirkor Sherzod Botirov muassisligidagi "Amira Textile" trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi ham bo'lgan. 2022 yilda u qurib bitkazildi. Xorijdan samarador dastgohlar keltirilib, ishga tushirildi. Lekin to'quv darstgohlari avvalgilariga o'xshamas edi. U kompyuterga yuklangan dasturga ko'ra ikki, uch qat to'qiy olar, bu esa iste'moldagi turfa hil ust-bosh, sport va oyoq kiyimlari matolarini, hatto mebel qoplamlarini ham to'qiy olardi. Tadbirkor to'quv syexi bilan chegaralanmadi. Ayni chog'da tikuvchilikni ham yo'Iga qo'ydi. Natijada tayyor mahsulot turlari kun sayin ortib bordi. Sekin-asta dastlab Qo'qon, keyin Toshkent, endi qo'shni Qirg'iziston va Tojikistondagi yirik ulgurji bozorlaridagi savdo shirkatlari Toshloqqa, "Amira Textile"ga kela boshladilar.-Korxonamizning o'ziga xosligi shundaki, biz O'zbekiston bozorlariga kelayotgan import trikotaj mahsulotlarini qisqartirib, o'rnini egallashga harakat qilamiz. Buning uchun biz keng assortimentli mahsulotlarni ishlab chiqarib, bozorga taqdim etyapmiz, - deydi ijrochi direktor Alisher Qo'chqorov. Bu maqsadga erishilayotganini uning iqtisodiy natijalaridan ham ko'rish mumkin. Bu yerda yaratilgan ish o'rni va mutaxassislarni bilan mahsulot hajmini 2023 yilda 210 milliard so'mga yetkazish rejalshtirilgan.-O'tgan yilgi qisqa ishlash vaqtida Rossiyaga 300 ming dollarlik eksportni amalga oshirdik, - deydi Alisher Qo'chqorov. - Yil boshida 1 million dollarlik shartnomaga erishdik. Biz 2023 yilda uni 5 million dollarga yetkazamiz.

"Ichki bozorda importni kamaytirish, tashqi bozorda eksportni ko'paytirish!". Bu "Amira Textile" shioridir. Bu yerda yana bir o'ziga xoslikni uchratasiz. Yigit-qizlar, mutaxassislarni chet ellarga borib ishlayotgan holatlar ko'p uchraydi. Toshloqdagi sanoat korxonalariga esa horijdan kelib ishlashmoqda.-Men Turkiyaning Gaziantep shahridanman, - deydi loyihachi Usmon Po'lat. - "Amira Textile" korxonasida Yevropa talabslari asosida ilg'or texnologiyalar asosida ish tashkil etilgani va asosiyisi, mahsulot sifatli bo'lgani uchun ham O'zbekistonga, Toshloq tumaniga kelib ishlayapman.Umuman, bugun tumanda faoliyat ko'rsatayotgan katta va kichik sanoat korxonalari 526 tani tashkil etadi. 2023 yilda esa ular qatoriga yana 56 ta qo'shilmoqda.

2023-02-23 18:02:52